

MUTAL BURXONOVNING “YORLARIM” VA “SARI KO‘HI BALAND” XOR AKAPELLA ASARINING O‘RNI

Z. SH. Mirmamatova

Guliston Davlat Pedagogika Instituti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti

Musiqa ta’limi yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Z.A.Nuraliyeva

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek bastakori Mutal Burxonovning ijodiy faoliyati va “Yorlarim”, “Sari ko‘hi baland” xor akapella asarlari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Xor, Akapella, Mutal Burxonov, Yorlarim, kompazitor, sari ko‘hi baland.

Аннотация: в данной статье анализируется творческая деятельность узбекского композитора Мутала Бурханова и хоровые произведения а капелла «Ёрларим», «Сари кохи баланд».

Ключевые слова: Хор, Акапелла, Мутал Бурханов, Ёрларим, композитор, сари кохи хай.

Annotation: this article analyzes the creative activity of Uzbek composer Mutal Burkhanov and choral acapella works "Yorlarim", "Sari kohi baland".

Key words: Choir, Acapella, Mutual Burkhanov, Yorlarim, composer, sari kohi high.

Atoqli kompazitor, drijor, taniqli musiqiy jamoat arbobi va O‘zbekiston respublikasi davlat madhiyasi musiqasi muallifi Mutavakkil Burxonov 1916-yilning 5-mayida Buxoro shahrida tavallud topdi. Dastlabki musiqa sabog‘ini Samarqand shahrida musiqa va xoreografiya institutida oldi. So‘ngra Moskva konservatoriyasiga oqishga kirib, 1949-yilda kompazitorlik va drijorlik mutahasisliklari bo‘yicha o‘qishni tamomladi. U Moskva konservatoriyasida professorlar S.N.Vasilenko, G.A.Stolyarovlar singari musiqa san’atining yetuk mutaxassislaridan saboq oladi. Burxonov butun umri davomida respublikamiz musiqa hayotining barcha jabhalarida faol ishtirok etadi. 1955-1960yillarda O‘zbekiston kompazitorlari uyushmasiga rahbarlik qiladi. Mutal Burxonov kompazitorlik san’atining turli yo‘nalishlarida ijod qilgan va bir-biridan jozibali, g‘ozal asarlar yaratgan ijodkor hisoblanadi. U ijodiy faoliyatini 30-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab o‘zining “Ishqida”, “Namedonam chi nom dorad”, ”Ey bulbul”, “Tabassum qilmading” kabi romanslarini yaratdi. 1941-yilda Uyg‘un va Izzat Sultonning “Alisher Navoiy” she’riy dramasiga musiqa, 1942-yili T.Sodiqov, T.Jalilov, A.Klumovlar bilan birgalikda ya’ni hamkorlikda ”O‘zbekiston qilichi” musiqali dramasiga musiqa bastalagan. O‘rta Osiyo xalq qo‘sishlarini o‘zbek xalq cholg‘u asboblari va jo‘rsiz xor uchun qayta ishladi, bir qator bolalar uchun qo‘sishlar ham yaratdi.

Burxonov 50-yillarda “Bahor qushlari” nomli vokal poema, ”Abu Ali Ibn Sino” nomli simfonik syuita, “Alisher Navoiyga qasida” kabi asarlarni yaratdi. Uning turli janrlarda yaratgan asarlari, jo‘rsiz xor uchun qayta ishlangan Sharq xalqlari

kuylari, vokalsimfonik asarlari, kino musiqlari zamonaviy musiqa san'atimizning oltin xazinasidan bo'ldi.

Burxonov "Samolyotlar qo'nolmadi", "Maftunungman", I.Akbarov, M.Leviyev bilan hamkorlikda "Orol baliqchalari", "Surayyo", "Boyilaxizmatchi" va boshqa shular kabi kinofilmarga kuy bastaladi.

Mutal Buronov mustaqillik yillarda ham katta g'ayrat bilan ijod qildi. 1991-yilda "alisher Navoiy" nomli operasini yaratdi. Ijodkorning o'zbek professional musiqa san'ati oldidagi katta xizmatlari munosib taqdirlandi.

Mutal Burxonov birinchilardan bo'lib ko'plab o'zbek, qoraqalpoq, uyg'ur, qozoq, afg'on, tojik va eron xalq qo'shiqlarini xor va yakkaxon kuylash uchun mohirona qayta ishladi va bu musiqa san'atini ancha boyitdi.

Mutal Burxonovning milliy musiqa san'ati va madaniyati rivojiga qo'shgan ulkan hissasi yuqorida aytilganidek munosib baholandi. O'zbekiston Prizidenti farmonlari bilan "Mehnat shuhrati", "El-yurt hurmati" va "Buyuk xizmatlari uchun" ordenlari bilan taqdirlangan. U yana "O'zbekiston xalq artisti" fahriy unvoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston davlat mukofotlari sohibidir.

O'zbek professional musiqa san'atining yorqin siyomosi Mutal Burxonov 2002-yilda 82 yoshida olamdan ko'z yumadi va Buxoro shahriga dafn qilinadi. Mutal Burxonov o'z asarlari bilan o'zbek musiqasida o'chmas iz qoldirdi. U musiqaning har sohasi ayniqsa xor sohsiga rivojiga juda katta hissa qo'shdi. Uning jo'rsiz xor uchun yaratilgan "Yorlariim" xor akapellasi O'rta Osiyo xalq kuylarini o'zida jamlagan bo'lib xor musiqasining eng katta yutug'i bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xorning yana bir turlaridan biri bu akapelladir. "Akapella" atamasi "kapella" so'zidan olingen bo'lib XVII asr oxirida qo'llanila boshlagan edi. XIX asr boshlarida esa bu uslub dunyoviy musiqada muhim o'rinn egalladi. Akapella musiqasi ko'pincha cherkov taqdimotining mukammal shakli sifatida qabul qilingan. Xor ijrochiligining yuksak uslubi bo'lganligi bois, unda xor to'liq mustaqilligi va tugallanganligi namoyon etiladi. Xalq ijrochiligi kuylarida ham uchraydi. Professional xor san'ati uslubi sifatida, o'rta asrlar diniy polifoniyasida rivojlandi. Bu uslubda italyan kompazitorlari asarlarida mumtoz ko'rinishga ega bo'ldi, rus xor san'atida yuksak cho'qqiga erishdi. Rus ijodkorlaridan akapella uslubida S.Tanyeyev, S.Rahmaninov, A.Kastalekniy, P.Chesnokov, V.Kalinnikov kabi bir qator kompazitorlar o'z asarlarini ommaga taqdim etdilar. XX asrga kelib O'zbekistonda akapella xor uslubi anchagina rivojlandi. O'zbek ijodkorlaridan A.Muhamedov, C.Boboyev, I.Akbarov, B.Umidjonov, M.Nasimov, N.Zokirov, B.Lutfullayev, D.Omonullayeva va boshqalar tomonidan xor akapella asarlari yaratildi. Tajribali xormeystrlar S.Velinkov, N.Sharafieva va boshqalar tomonidan qayta ishlangan xalq qo'shiqlari, a kapella asarlari ham diqqatga sazovor bo'lib ushbu uslub rivojiga katta hissa qo'shdi. XX asrning 50-yillarida akapella xor uslubi O'zbekistonda rivojlanishiga Mutal Burxonov asos soldi. Uning O'rta Osiyo xalq qo'shiqlari tasiridagi "Yorlarim" xor akapellasi bunga yorqin misoldir.

Mutal Burxonov xalq kuylarini qayta ishlash jarayonida uni boyitadi va yangicha talqinda ijodkorlarga namoyon etadi. U bu jarayonda sharq xalqlarining turli qo'shiqlarini mahorat bilan bir tekisda birlashtiradi va xalq qo'shiqlarining ichki hususiyatiga ahamiyatli bo'lgan holda mavjud imkoniyatlardan foydalanadi.

Burxonovning polifonik qayta ishlashining yana bir qoidasi bunda xor asosan juftlashgan 2 ovozli tembr asosida birlashtirilgan. Kompazitor xalq kuylarini qayta ishslash davomida har bir qo'shiqda yorqin, esda qolarli obraz yaratadi.

Mutal Burxonov qayta ishlagan qo'shiqlar fakturasi ikki xil uslub polifonik va gomofoniyalı-garmonik uslublarning o'zaro bog'lanishi orqali tashkil topadi. Polifonik uslub kichik tuzilmalarda ko'proq ishlatiladi, shakl esa kadanslar yordamida bo'limlarga bo'linib, gomofonik musiqa uslublaridan tashkil topadi. Burxonovning polifonik uslublari xilma-xil bo'lib, bunda kompazitor polifoniya xususan, kanon vositalaridan keng va unumli foydalanadi.

Burxonov “Yorlarim” qo’shig‘ini ham qayta ishlab xor akapella uchun moslashtirgan. “Yorlarim” o’zbek xalq qo’shig‘i bo‘lib, so‘zлari mutaffakkir Muqimiyya tegishli. Ushbu asar Allegro con animando tempida yozilgan. Asar davomida yagona ritmik tuzilma hukmronlik qiladi. Qo’shiq mazmuni lirik ohangda, simkopali usulga moslangan. Qo’shiqda lya va re tuvushlarini doira usuli singaridir.

ЁРЛАРИМ

Мукимиш шеъри

Allegro con animando

p

Эн - ди сен - дек
жо - на - жо - нон
кай - да

Эн - ди сен - дек
жо - нон кай
да

Soli 2

Ля, ля, ля, ля, ля, ля, ля, ля, ля, *Simile*

6

mp

дур.
Эн - ди сен - дек
жо - на - жо - нон
кай - да
дур.

дур.
Эн - ди сен - дек
жо - нон кай
да
дур.

mp

Эн - ди сен - дек
жо - на - жо - нон
кай - да
дур.

mp

Эн - ди сен - дек
жо - нон кай
да
дур.

Xorning yana muhim jihatlaridan biri soprano va tenor ovozlari bosh rolni o‘ynasa, alt va bas ovozlari yordamchi ovoz hisoblanadi.Qo‘sish dinamik jihatdanham juda boy bo‘lib piano, metsoforte, kirishendo va diminuendo kabi

dinamik belgilardan asar davomida keng foydalanilgan. Qo'shiq shakli reprizali oddiy ikki qismli shakl hisoblanadi.

САРИ КҮХИ БАЛАНД

Тожик ҳалқ құшиғи

М.Бурханов

Moderato con anima

pp dolce

S Ca - ri kú - xi ба - ланд то кай би - ши - *p* пам? Си - ёх чаш - мак ба -
A - *p* (Огизни юмиб) Си - ёх чаш - мак ба -
T -
B -

mp

7 ро - ял, ман бу - би - пам (Огизни юмиб)
po - ял.
pp Са - ри кú - хи ба -
Ca - ri kú - хи ба - ланд!
Са - ри кú - хи ба - ланд!

f

14 rit. *pp* *mp a tempo* Са - ри кú - хи ба - ланд то
mf ланд! *f* *p* (Огизни юмиб) *mp* Са - ри кú - хи ба -
(Огизни юмиб) *f* *p* Са - ри кú - хи ба -

20 *mf* кай би - ши пам? Си - ёх чаш - мак ба - ро - ял,
pp Си - ёх чаш - мак ба -
mf ланд то кай би - ши пам? Си - ёх чаш - мак ба -
pp Си - ёх чаш - мак ба -
pp Си - ёх чаш - мак ба -

Tojik xalq kuyi hisoblanib, mayin va lirik harakterda yozilgan “Sari ko‘hi baland” xori ikki mavzuga asoslangan, b-moll (si minor) tonalligida yozilgan. Birinchi mavzu pastga tomon harakatlangan sekin tempdava kichik sekunda

intonatsiyasidagi kuy hisoblanadi. Ikkinci mavzu baland registrda kuyylanadi va pastga tomon harakatlanadi

Qo'shiqning har bir ovozlarida birinchi mavzu ko'proq takrorlanadi, yopiq og'iz bilam kuylash lozim. Qo'shiqning o'rta qismida bu mavzu streto shakliga o'tkaziladi. Bu qo'shiq uch qismli shaklda yozilgan, imitatsiya shakli qo'llanilgan. Bundan tashqari asarga dinamik jihatdan ham alohida ishlov berilgan. Asar Moderato con anima tempida yozilgan. Asarda o'lchovlarning almashinib turishini ham ko'rish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz joizki darhaqiqat, O'zbekistonda xor musiqa si yaratilishida Burxonovning o'rni juda katta. Chunki aynan Mutal Burxonov o'zbek musiqa san'atiga birinchilardan bo'lib yangicha xor ya'ni akapellani olib kirdi va bu bilan chegaralanmagan holda o'zining "Yorlarim" va "Sari ko'hi baland" xor akapella asarlarini taqdim etdi. Asarni tahlil qilish davomida yana shuni takidlash lozim Burxonov bu asarlariga murakkab tarzda mahorat bilan ishlov bergen. O'rta Osiyo xalqlari milliy musiqa xususiyatlarini Yevropa xalqlarida yuksak rivojlangan ko'p ovozli professional musiqa elementlari bilan uyg'unlashtirib, barcha ifoda vositalarining usluban yaxlitligiga erishgan. Burxonov o'zining "Yorlarim", "Sari ko'hi baland" xor akapella asarlari bilan bir gap bilan aytganda o'zbek musiqa sida, xor san'atida chuqur va o'chmas o'rinn egalladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- 1."O'zbek musiqa adabiyoti" N.Yuldasheva, N.Rahmatova 2016
- 2."O'zbek musiqa tarixi" T.E. Salomonova 1981
- 3."Xorshunoslikning boshlang'ich kursi" Sevara Kadirova 2015
- 4."Xorshunoslik" Sh.Ro'ziyev 1987